

## IMOMQULIXONNING ASHTARXONIY HUKUMDOR SIFATIDA TUTGAN O'RNI

*Sanoyeva Ruxshona Siroj qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ashtarxoniy hukumdor Imomqulixonning hukumdorlik salohiyati va tashqi diplomatik aloqalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Iskandar sulton, qozoqlar, Toshkent, Yalangto'sh Bahodir, Tursun Sulton, Shohruxiya, Odambiy, Ivan Xoxlov, Jahongirshoh, Ramesh Varma, Hakim Hoziq, Haj safari, jo'ybor shayxlar, Xo'ja Tojiddin, Arofat tog'i.

Imomqulixon (1589-1644) Buxoro xonligini uchinchi hukumdori bo'lib, xonlik taxtini 1611-1642 yillar davomida idora qilgan. Rasman xonlik taxtiga o'tirgandan so'ng ukasi Nodir Muhammadni Balx hukumdori qilib tayinlaydi. Bu davrda xonlik o'z taraqqiyotini cho'qqisiga chiqdi. Imomqulixon davrida mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot barqarorlashadi va bu jarayon haqida ko'plab manbalarda keltitib o'tiladi. Xususan, ulardan birida shunday yoziladi: "Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi, uning davrida na kambag'al, na bechora qolgandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong'u tushishi bilan oddiy kiyim kiyib, vaziri va qo'riqchisi bilan bozorlarni aylanib, oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan boxabar bo'lib turardi. U ulamo va abado hamda shoirlar bilan suhbatdan lazzat topib, ko'p vaqtni hukumdor libosini yechib, darveshlik hirqasini kiyib yurib o'tkazar, har narsani o'zi darhol bilishi uchun vaziri Nodir devonbegi va yaqin mahrami Abdulvose' bilan shahar aylanar edi. Uning qiyofasini o'zgartirib yurishiga oid ko'p voqealar va hikoyalar mavjud."<sup>1</sup> Imomqulixon Toshkent, Andijon, Turkiston shaharlariga xavf solib turgan qozoqlar, qalmoqlar va ko'chmanchilarga qarshi kurashlar olib bordi. Toshkent va shimoli-sharqiy chegaralarga qozoqlar va oyratlar hujumi tus olgach, 1613-yil ularga zarba beradi. Natijada Toshkent taxtiga o'g'li Iskandarni tayinlaydi. Toshkent aholisi Iskandar yuritgan siyosatdan norozi bo'ladi va Iskandarni o'ldiradi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkentga yetib keladi va shunday qasam ichadi: "Qasam ichamanki, shaharni olgach, uning aholisini qilichdan o'tkazaman, toki dushmanning qoni otimning uzangisigacha yetmaguncha, qirishni to'xtamayman!" Shu tariqa Imomqulixon o'z qasamini ado etdi. 1621-yil qozoq Tursun Sultonga qarshi ashtarxoniy qo'mondon Yalangto'sh Bahodirni yuboradi. 1623-Tursun Sulton Movorounnahrda hujum qildi va Shohruxiyani egalladi. Samarqand va Miyonqol hududlari talon-taroj qilindi. Natijada Imomqulixon qozoqlar bilan tinchlik sulhini

<sup>1</sup> Arminiy Vamberi. Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi. Ikkinchi jild. / Rus tilidan tarjima va izohlar muallifi Sirojiddin Ahmad. T.: Info capital group, 2019. 117-b.

tuzishga qaror qildi va sulhga ko'ra xonlik chegarasi Shohruxiyadan o'tishi belgilandi. Imomqulixonning yurishlari Dashti Qipchoqqacha davom etdi. Imomqulixon obodonchilik yo'lida ham ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1614-1615 yillar davomida Qashqadaryodan qarshi cho'lga va 1633-yil Qo'shqo'rg'onga kanal qazdiradi. 1617-yil Registon maydonida Poyandabiy masjidi bunyod etiladi. 1637-yilda esa Mag'oki Ko'rpa masjidi qad rostlagan. Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir zamonida 2 madrasadan tashqari, 1612-1613 yillarda Qozi Soqiy (Qozi Soqiy Imomqulixon davrida Samarqandning qozi kaloni vazifasida faoliyat ko'rsatgan), 1637-1638 yillarda Sayyid Ahmadxo'ja madrasalari bunyod etilgan.<sup>2</sup> Imomqulixon harbiy yurishlar bilan bir qatorda tashqi diplomatik aloqalarni ham olib borgan. Rossiya, Eron, Turkiya, Hindiston va qozoq xonlari bilan yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'ygan. Imomqulixon Moskvaga birinchi bo'lib 1613-yil Navro'z Xoja boshchiligida elchi cho'natdi. Buxoro xonligi Rossiyaga to'qqiz marta elchi yuboradi. Imomqulixon Rossiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida 1620-yil Odambiyini rus podshosi Mixail Fyodorovich (1613-1645) yoniga yuboradi. Xonning taklifidan mamnun bo'lgan podsho Buxoroga Ivan Xoxlov boshchiligida elchilik missiyasini yuboradi. 1621-yil Samarqandda bo'gan Xoxlov rus podshosi topshirig'iga binoan xondan 27 ta rus asirni ozod qilishini iltimos qiladi. Imomqulixon bu iltimosni qabul qildi. Imomqulixon Sibir bilan aloqasini kuchaytirish maqsadida rus podshosiga katta sovg'alar yuboradi. Sovg'alar shu darajada ko'p bo'lganki, ba'zi manbalarda bu sovg'alarni 37 ming ko'targani aytiladi. 1641- yilda Astraxanga Imomqulixonning elchisi yuboriladi. Imomqulixon Hindiston bilan ham yaxshi diplomatik aloqalar olib borgan. Xususan, 1614-yil elchilarini Jahongirshoh saroyiga yuboradi. Hind tarixchisi Varma bu elchilar haqida gapirib, Jahongir nomiga yozilgan maktubni olib kelganliklarini aytadi. Maktubda ikkala davlat ittifoq bo'lib, Iroq, Eron va Xurosonni ko'plab hududlarini bosib olgani haqida yozadi. 1625-yilda Jahongir o'z elchisi Hakim Hoziqni Imomqulixonni saroyiga yuboradi. Hakim Hoziq Hindistonga qaytishda o'zi bilan qimmatbaho ko'plab sovg'alar olib keladi. Sovg'alar orasida oltin baliq tishi va turli toshlardan bilan qadalgan chodir Shoh Jahongirni diqqatini tortadi. 1625-yil Imomqulixonning O'zbekxo'ja boshchiligidagi elchisi Kashmirda qabul qilindi. Bunga javoban Mir Barak boshchiligidagi missiya Buxoroga Imomqulixon saroyiga borishadi. Xon elchilar Hindistonga qaytayotganida xattotlar va naqqoshlar tomonidan bezab ko'chirilgan qimmatbaho qo'lyozma asarni tortiq qiladi. Jahongirni 1627-yilda vafot etishi tufayli elchilik missiyasi to'xtab qoladi. Imomqulixon tabiatida darveshlik xususiyati ham mavjud edi. U olimlar, shoirlar, darveshlar, o'z zamonasining ulug'lari suhbatini yaxshi ko'rgan. O'zi ham so'fiyona she'rlar mashq qilgan. U ko'proq Yusuf Qorabog'iy suhbatini maroq bilan tinglagan. Mavlono Yusuf

<sup>2</sup> Abu Tohirxo'ja Samarqandiy. Samariya. / Forschadan tarjima Abdul Mo'min Sattoriy, qayta ishlangan va to'ldirilgan nashriga mas'ul Sh. Vohidov, B.Aminov. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. 129-b.

Qorabog'iy Xurosondan Buxoroga kelib, bu yerda Mirzojon Sheroziyga mudir bo'ladi va Imomqulixon zamonida mashhurlikka erishadi. Imomqulixon bundan tashqari jo'ybor shayxlar bilan ham doimiy yaxshi munosabatda bo'lishga intilgan. Tarixchi olim To'rayevni yozishicha, u bu xonadon vakillari bilan yaxshi aloqa o'rnatadi. Ba'zan ohi ovi bilan mashg'ul bo'lgan Imomqulixonning bir bor ovi baroridan kelmadi. Bundan darg'azab bo'lib, o'z lashkarkarlariga ov qilinayotgan hudud atroflarida yashayotgan aholining mol-mulkini talashga buyurdi. Lekin Xo'ja Tojiddin aralashuvi bilan aholi mol-mulki g'orotdan saqlab qolindi. Ayrim davlar lavozimlariga odam tayinlashda Imomqulixon Xo'ja Tojiddin maslahatlarini olib turgan.<sup>3</sup> Imomqulixonning Xo'ja Tojiddin bilan munosabatlari quda-andachilik rishtalari bilan yanada mustahkamlandi. Ya'ni Imomqulixon o'z singlisi Poyanda sulton xonimni Xo'ja Tojiddinga nikohlab bergan.<sup>4</sup> Hukumronligining so'nggi yillarida ko'zi ojiz bo'lib qolgan Imomqulixon taxtdan voz kechishga qaror qildi. Bunga sabab ko'zi ojizligidan foydalangan amaldorlarni o'z xohishlaricha ish yuritishlari va mustaqil siyosatni amalga oshirishlari sabab bo'ladi. Imomqulixon taxtni ukasi Nodir Muhammadga topshirib, o'zi haj safariga yo'l oladi. Aytish joizki, Imomqulixon Movorounnahrda hukumronlik qilgan ashtarxoniy hukumdorlar orasidan birinchi bor mol-u dunyodan voz kechib, haj safariga otlangan hukumdor edi. Salkam 31 yil davlatni boshqargan Imomqulixon 1644-yil 27- avgustiga kelib, Haj safariga borishda vafot etdi va Arofat tog'i Baqiya qabristoniga dafn etildi. D.Sanigirovaning yozishicha, Imomqulixonning janoza marosimida 600 ming atrofdagi odamlar ishtirok etgan ekan.<sup>5</sup> Imomqulixonning 3 nafar o'g'li bo'lib, ular- Iskandar Sulton, Pir Muhammad Sulton (Muhammad Ali), Bahrom mirzolar hisoblanadi. Imomqulixonning Makka shahrida vafot etganidan xabar topgan Xo'ja Tojiddin uning dafn marosimi bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. U 10 ta ot va 100 ta qo'y so'yadi va Buxorodagi Volidaxon madrasasida nufuzli shaxslarni toplab xatm Qur'on o'tkazadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buxoro xonligining Ahtarxoniy hukumdorlari [Matn]: monografiya / A.Zamonov. – Toshkent: "BAYOZ", 2021.- 40-43 -b.
2. Arminiy Vamberi. Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi. Ikkinchi jild. / Rus tilidan tarjima va izohlar muallifi Sirojiddin Ahmad. T.: Info capital group, 2019. 117-b.
3. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора Семёнов А.А.- Ташкент:издательство академии наук Узбекской ССР, 1956.-С. 73.

<sup>3</sup> To'rayev H. Ashtarxoniy Imomqulixon va Jo'yboriylar. // Buxoro mavjlari.2007. 2-son.

<sup>4</sup> Muhammad Tolib. Matlab ut-tolibin. 2016. 209-b.

<sup>5</sup> Sangirova D.X. Haj ziyorati va hukumdor hojilar. // O'tmishga nazar. T., 2019.- 29-b

4. Abu Tohirxo'ja Samarqandiy. Samariya. / Forschadan tarjima Abdul Mo'min Sattoriy, qayta ishlangan va to'ldirilgan nashriga mas'ul Sh.Vohidov, B.Aminov,-T.: Yangi asr avlodi, 2009.119-b.
5. To'rayev H. Ashtarxoniy Imomqulixon va Jo'yboriylar. // Buxoro mavjlari. 2007. 2-son.
6. Muhammad Tolib. Matla but-tolibin.2016. 209-b.
7. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. – С.83.